



## MIFOPOETONIMLARNING LINGVOPOETIK VOSITA SIFATIDAGI VAZIFALARI

**Ubaydullayeva Orzugul**

*Qarshi davlat universiteti magistranti*

**Rajabov Feruz**

*QarMII akademik litseyi katta o'qituvchisi f.f.f.d.(PhD)*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada mifopoetonimlarning ilmiy manbalar va lug'atlarda talqin etilishi tahlil qilishga harakat qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Mifonim, mifopoetonim, lingvopoetik vosita, allyuziv nom, Haydar, Qaqnus.*

Mifonimlar xayolga, tasavvurga asoslangan nomlar bo'lib, nomning motivida mifik tasavvur yotadi. Bunday nom toponim ham, antroponim ham, zoonim ham, oronim ham bo'lishi mumkin<sup>1</sup>. Mifopoetonimlarning badiiy matnga olib kirilishi allyuziya usuli bo'lib, u badiiy ijodda keng tarqalgan hodisalardan biridir. Bunda *mifopoetonim* intertekstual matn unsuri vazifasida qo'llanib, allyuziv nom sifatida lingvopoetik qimmat kasb etadi. Mifopoetonimlar allyuziv nom sifatida badiiy matnda katta hajmli xabar-tushunchani ixcham shaklda ifodalash imkoniyatini bera oladi. Masalan, badiiy matnda qo'llangan *Haydar* nomi shamol, *Azroil* nomi o'lim hodisalari bilan bog'liq allyuziv nomlardir. Qadimgi turkiy xalqlar qatori o'zbek xalqi orasida ham shamol piri sifatida Haydar kultiga sig'inib, shamol chaqirish ("Yo Haydar") marosimi o'tkazib kelingan. Mana shu jarayonda Haydar nomi bilan bog'liq e'tiqodiy inonchlar tizimi asosida shamolning afsonaviy homiysi – *Haydar* yoki *Mirhaydar* nomi tilga olingan. *Haydar* onimi badiiy matnda *talmeh*, *nido* kabi she'riy san'atlar uchun lingvopoetik vosita bo'lib keladi va estetik zavq bag'ishlaydi. Buni biz xalq qo'shig'i "Chittigul" matnida ham ko'rishimiz mumkin.

*"O'rtada o'ynagan qizning*

*Haydar kokili yaxshi.*

*Hay-yu, chittigul,*

*Hay-yu, chittigul".*

Yoki yozma adabiyot vakili shoir Sadridin Salim Buxoriy she'rlaridan birida keltirib o'tgan:

*"Kokilingni qimirlat, Haydar!*

<sup>1</sup> Bu haqda qarang: Avlakulov Y. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 2012. – B.36.



*Bolangni suv eltmoqda, Haydar!  
Seni uyqu eltmoqda, Haydar!"  
Bobo tongdan bug'doy shopirar.  
Bobo tongdan bug'doy shopirar.  
"Bobo, men ham Haydar bo'layin,  
Kokil nuqra yo zar bo'layin.  
Chorlasangiz yuboray epkin,  
Bobo, men ham Haydar bo'layin..."*

She'rda "kokil" so'zi bejiz keltirilmagan. Mifologik tasavvurlarga ko'ra, shamol piri Haydarning kokili bo'lganligi aytiladi. Kokil uning asosiy belgisi bo'lgan. Ajdodlarimizning e'tiqodi bo'yicha, dehqonlar donni sovurayotganida shamol bo'lmasa, Haydarga murojaat qilib, qo'shiq aytishgan va uni kelishga da'vat qilishgan.<sup>2</sup>

M.Jo'rayev fikricha, O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlar orasida shamol homiysi sifatida tasavvur qilinuvchi *Haydar* yoki *Mirhaydar* obrazining tarixiy-mifologik asoslari zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto»da tasvirlangan shamol tangrisi – «Vata» haqidagi e'tiqodiy qarashlarga borib taqaladi. «Vata» obrazi esa ajdodlarimizning zardushtiylikdan ham ilgarigi e'tiqodiy inonchlari, tabiat hodisalarini mo'tabarlashtirish bilan bog'liq mifologik tasavvurlar, hosildorlik kultlariga sig'inish an'analari zamirida yuzaga kelgan hamda homiy kuch timsoli sifatida mifologik personajlar tizimidan o'rin olgan".<sup>3</sup>

Odatda, "Yo Haydar" marosimi donli ekinlarni shamolda sovurib tozalash maqsadida o'tkazilar ekan, shu jarayonda Haydar nomiga murojaat aks etgan qo'shiqlar ijro qilingan. Taniqli o'zbek shoiri Mirtemirning "Suhbat" she'ri bevosita xalqning ana shunday qo'shig'i motivi va ohangini stilizatsiya qilish asosida yaratilganligi bilan e'tiborni tortadi:

*Haydar! Boshla so'zingni, yurak to'lqinlanadi,  
Kipriklarim pirpirab, ko'zim o'tday yonadi.* <sup>4</sup>

Yuqoridagi satrlarda shamol so'zi tilga olinmayotgan esa-da, undagi Haydar nomi shamolga murojaat etilayotganligini bildiradi.

*Haydar! Kel bir yondoshib,  
Haydar! Kel, shoshib-shoshib.  
Haydar! Kel, toshib-shoshib,  
Qo'shiq aytaylik!  
Haydar, qani boshlay qol.*

<sup>2</sup> Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. Darslik. – T.: Navro'z, 2019. – B.190.

<sup>3</sup> Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. Darslik. – T.: Navro'z, 2019. – B.190-191.

<sup>4</sup> Mirtemir. Asarlar. 3 jildlik. 1-jild. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – B.52.



*Haydar, qani o'zing ol.*<sup>5</sup>

Shamolning esishi lirik qahramon tuyg'ularini junbushga soladi. Shoir uning esishida ezguliklarni, yaxshiliklarni ko'radi. Demak, Mirtemir xalqning shamol chaqirish qo'shig'i qahramoni Haydar nomini talmeh sifatida qo'llab, o'ziga xos sir saqlash san'atini yuzaga keltirgan va poetik fikrni ta'sirchan ifodalashga erishgan.

Bundan tashqari, O'rta Osiyoda istiqomat qiladigan turkiy xalqlar orasida shamolni to'xtatish uchun shamol tangrisi Chuy momoga, Yalli bobo nomiga ham sig'inib kelingan. Yomg'ir chaqirish uchun esa suv tangrisi Tishtriyadan madad so'ralgan.<sup>6</sup>

Ma'lumotlarga ko'ra, yunon mifologiyasida Zefir (Zephyros) g'arbiy shamol ma'budi nomi sifatida tilga olinadi.<sup>7</sup> Shuningdek, ba'zi badiiy matnlarda uchraydigan Elma nomi ham mifodeopoetonim bo'lib, muqaddas Elma oloviga ishora qiladi. U tabiatning noyob, eng kam kuzatiladigan hodisalaridan biri bo'lib, odatda, momaqaldiroqdan oldin ko'rinish beradi. Bu mifodeopoetonimni dengizchilar o'z himoyachisi, sifatida talqin qilishadi.<sup>8</sup>

O'zbek badiiy matnlarida *G'ivot*, *Qaqnus*, *Humo*, *Samandar* kabi mifozoonimlar faol qo'llaniladi. Ular mashhur nom sifatida matnni shakllantirishga, intertekstuallikka xizmat qiladi. «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida tasvirlangan bir qancha xislatlarga ega afsonaviy ot bo'lgan *G'ivot* mifozoonimi she'riy matnlarda allyuziv nom sifatida qo'llanib, turli poetik maqsadlarni yoritishda lingvopoetik vosita vazifasini bajarib kelgan. *G'.G'ulomning «Mohgul»* nomli she'rida *G'ivot* nomi o'ziga xos metaforani yuzaga keltirishda vosita bo'lgan. Shoir samolyotni *qo'sh qanotli G'ivot* deya ta'riflab, onomastik birlikdan tasviriylik va obrazlilik yaratishda mahorat bilan foydalangan:

*Talay qizni ko'rdim Kobul, Hirotda,  
Chodir ichra zulmatda, pul-sirotda,  
Sen uhasan qo'sh qanotli G'ivotda,  
Olmos pora qadri oshar qirotida,  
Qorachig'ing chaqinsimon, Mohgul... (G'.G'ulom. Mohgul).*

**BUROQ** arabcha «yarqiroq», «barq» so'zidan olingan. Islom rivoyatlarida juda tez chopadigan va uchadigan maxluqning nomi. Qur'oni karimda zikr qilinishicha, Muhammad(s.a.v) uni minib Makka shahridan «tungi sayr»da me'rojga chiqqan. Rivoyat qilishlaricha, Buroq Muhammad(s.a.v)ni Ka'ba oldiga

<sup>5</sup> Mirtemir. Asarlar. 3 jildlik. 1-jild. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – B.52.

<sup>6</sup> Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. Darslik. – T.: Navro'z, 2019. – 510 b.

<sup>7</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – B.146.

<sup>8</sup> [www.http](http://www.http) Краткий словарь терминов и понятий литературной ономастики (поэтонимологии).



kelib kutib turgan, avvaliga u sarkashlik qilgan, hazrat Jabroil majbur etgandan so'ng bo'ysungan. Buroq boshqa payg'ambarlar, chunonchi Ibrohim va Dovud payg'ambarlarga ham xizmat qilgan, deydilar. Buroq goh ot, goh xachir shaklda, oq rangli, bo'yni cho'ziq, quloqlari uzun, oyoqlarida qanoti bo'lgan deb ta'riflangan. Sharq miniaturalarida boshi odam, tanasi ot tarzda tasvirlangan.<sup>9</sup> Ushbu zoopoetonim matnning mazmun ko'lamini shakllantirishga ham xizmat qilgan:

*Arshning suluv oti – nurqanot Buroq*

*Etdi Muhammadni oliy dargohga.*

*Tasviri joizmas bu holni, biroq*

*Visol nasib etdi Rasulullohga (A.Oripov. Me'roj).*

“Sharq ertaklarida uchraydigan g'oyat yirik afsonaviy qush nomi Qaqnus badiiy matnda poetik maqsadda qo'llanadi. Qaqnus nomi badiiy matnlarda biror maqsad yo'lida o'zini fido qiluvchi odamlarga qiyoslanib, badiiy mazmun ta'sirchanligini oshirishda lingvopoetik vosita bo'lib keladi.

*Bizga yor bo'ldiy Qaqnus qismati,*

*Yonib, kul bo'lmoqdan o'rtandik yakkash (S.Rauf. Nahotki zerikdik...).*

*Jambil, Jarjon, Susambil, Ko'hi Qof, Bog'i Eram, Bo'tan tog'* kabi mifotoponimlarni ham to'qima toponimlar tarkibida o'rganish mumkin. Chunki mifotoponimlar badiiy matnning makoniy ko'lamini abstraksiyalash maqsadida qo'llaniladi. Makon bilan bog'liq sirlilik, mavhumlikni bo'rttirib ifodalashga xizmat qiladi”<sup>10</sup>.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mifopoetonimlar badiiy matnda o'xshatish, qiyoslash, intertekstuallik, onomastik metafora kabi vazifalarni bajarib keladi va ularning leksik-semantik mohiyati, lingvopoetik xususiyatlari, vazifalari har bir xalqning milliy-madaniy mentaliteti, e'tiqodiy tushunchalari, o'ziga xos urf-odat va marosimlari, poetik tafakkur tarzi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avlakulov Y. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fan. nomz. .diss. – Toshkent, 2012. – B.36.

<sup>9</sup> Rajabov F. Bobur asarlari poetonimlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2022. – B. 27-28.

<sup>10</sup> Andaniyazova D.R. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). diss. – Toshkent, 2017. – B.144.



2. Andaniyazova D.R. Badiiy matnda onomastik birliklar lingvopoetikasi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). diss. – Toshkent, 2017. 170-b.
3. Mirtemir. Asarlar. 3 jildlik. 1-jild. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971.
4. Jo'rayev M., O'rayeva D. O'zbek mifologiyasi. Darslik. – T.: Navro'z, 2019. – 510 b.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 2-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
6. Rajabov F., Bobur asarlari poetonimlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2022. 104 b.